



“XAMSA” DOSTONIDA FALSAFIY – AXLOQIY ME’YORLAR Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, o’zga tilli guruhlarda o’zbek tili ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8058270>

ARTICLE INFO

Received: 12th June 2023

Accepted: 18th June 2023

Online: 19th June 2023

KEY WORDS

“Xamsa”, adabiyot, yetim-yesirlar, hikoyatlar, o’g’ri, yaxshilik, yomonlik, ibodat, talmeh, payg’ambar, shahs nomlari.

ABSTRACT

Har bir payg’ambar odamlarga yaxshilik ezgulik ulashish ularga to’g’ri yo’lni ko’rsatish uchun Alloh tomonidan yuborilgan elchilardir. Biz ham odamlarga qo’limizdan kelgancha yaxshilik qilishimiz kerak. Bizdan qoladigan narsa bu faqat qilgan yaxshiliklarimiz shuning uchun faqat yaxshi ishlar qilib odamlarning xotirasida yaxshi inson bo’lib qolishimiz kerak. Alisher Navoiyning fikricha kimdir biror-bir insonga yaxshilik qilsa, u yaxshilik qilingan insondan ham ko’p yaxshilik ko’rgan bo’ladi. Chunki odamlarga bir yaxshilik qilsak bizga o’n baravar bo’lib qaytadi. Shulardan Ayyub Alayhissalomni eslaganimizda ko’z oldimizga har qanday og’ir vaziyatda ham sabr qilib, Allohga shukur qiladigan sabr-bardoshli, Allohga shikoyat qilmaydigan inson gavdalanadi. Ayyub payg’ambar yomonlik qilgan insonga ham, har doim yaxshilik bilan javob qaytarganligiga amin bo’lamiz.

O’zbek adabiyotining taraqqiy etishida eng ko’p ishlatiladigan obrazlar Payg’ambarlardir. Tarixiy shaxslarni tasvirlashda, yorning go’zalligini, sabr qilish kerakligini ta’riflashda ham, payg’ambarlarning siymosidan foydalanamiz.

Alisher Navoiyning eng buyuk asari bu “Xamsa” shu asarning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) bu doston 63 bob 20 maqolatdan iborat. Bu asar falsafiy-axloqiy mavzudagi eng yaxshi asarlarning birisi sanaladi. Bu asarning asosiy qismi 40 bobni tashkil qiladi. Asarda birinchi munosabat bildiriladi, keyin shoirning o’zi fikr mulohazalarini bayon qilib, mavzuga doir ibratli hikoya ham keltiradi.

Alisher Navoiy har doim odamlarga yaxshilik tilagan va yordam bergan. “Hayrat ul-abror” ning o’n uchinchi maqolati ayni shunday fazilatli insonlar haqida yozilgan. Yaxshilik qiluvchi insonlarning maqsadi har doim insonlarga yaxshilik, ezgulik ulashish. Ular odamlarga qanchalik ko’p yaxshilik qilishsa, Alloh ularga undan ham ko’p yaxshilik qaytaradi.

Yomonlik-razillikning belgisi. Tez yonib avj olish, faqat olovga xosdir. Tez yongan olov, albatta, tez o’chadi va odamlarga hech qanday foyda keltirmaydi. Chunki u tanamizni ham qizdirib bilmaydi. Shunday razil insonlar issig’i yo’q olovga o’xshatiladi. Razillikdan hech qaysi inson foyda ko’rgan emas.



Bunday insonlar hech qachon yorug'likni ko'rmaydigan faqat zulmatda yashaydigan ko'rshapalikka o'xshatiladi.

Odamlarga qo'limizdan kelgancha yaxshilik qilishimiz kerak. Dehqon niholni qancha parvarish qilsa, u gul va meva beradi. Agar unga e'tibor berilmasa meva ham gul ham bo'lmaydi, chunki u nobud bo'ladi.

Kimdir zarar keltirishga odatlansa, u faqat odamlarga emas balki o'ziga ham jabr qilgan bo'ladi. Shunday insonlar bor yomonligini yashirishmoqchi bo'lishadi, lekin mushkni qancha berkitsak ham undan chiqadigan xushbo'y xid hamma joyga tarqaladi. Yomonlik ham shunday uni qancha berkitishsa ham, uning baribir asoratlari sezilib turadi, hattoki inson o'z suhbatini davomida ham buni sezdirib qo'yishi mumkin.

Yaxshi - yamondin bari ermas jahon,

Lek yamon zohir-u, yaxshi nihon.

Chunki yamon ko'prak emish, yaxshi oz,

Jazmki, oz o'lg'usidur yaxshi roz.

Alisher Navoiyning fikricha kimdir biror-bir insonga yaxshilik qilsa, u yaxshilik qilingan insondan ham ko'p yaxshilik ko'rgan bo'ladi. Bir insonning boshqalarga yaxshilik qilishga, ularga yordam berishga mablag'i yo'q bo'lsa ham, so'z bilan yaxshilik qilishi kerak.

Yomon insonlar boshqa insonlardagi yaxshilikni ham ko'ra olishmaydi, darrov ularga hasad qilishadi. Alloh ularga yaxshiliklar, yaxshi narsalar tuhfa qilsa, ularga hasad qilishadi.

Ayyub payg'ambarning boyligi yildan-yilga oshib boradi. Lekin Payg'ambarimiz bundan hech hursand bo'lmaydi. "Allohim bular dunyo zindonidagi insonlarga bergan tuhfalarning bo'lsa, jannatdagi bandalaringga beradigan ne'matlarning qanday ekan". Mol dunyosi shunchalik ko'p bo'lsa ham hech qachon shukur qilishdan to'xtamaydi. Ayyub payg'ambar bu dunyoda ham oxiratda ham ne'matlarga erishmoqda deb Shayton bittasidan ajratishga harakat qiladi. Avval mol dunyosini yoqib yuboradi, keyin farzandlarini o'ldiradi, yetti o'g'il yetti qizi bor edi. Ayyub shunda ham shukur qilishdan to'xtamaydi keyin o'zining sog'ligi yomonlashadi shunda ham Allohga shukrlar keltiradi.

Ayyub Alayhissalom masjidlar bino qildiradi, Mehmonlar, kambag'allar, yetim-yesirlar uchun dasturxonlar yozdiradi. Biror-bir inson qandaydir yordam so'rab kelsa, ularning hech birini rad qilmay hammasi bilan suhbatlashib ularga yordam beradilar.

Bir kuni Ayyub payg'ambar toat-ibodat qilib o'tirgan paytda bitta o'g'ri lahm kavlab uyiga kiradi va bir chekkada yig'lab duo qilayotgan payg'ambarga ko'zi tushadi, payg'ambar ham uni ko'radi, lekin e'tibor bermagandek ibodatini davom qiladi.

Keyin o'g'ri teshikdan chiqadi va uydan nima topsa o'zi ko'tarib biladigan narsalarni olib teshikning yoniga boradi, lekin teshik kichik bo'lgani sababli, u teshikdan chiqib ketolmaydi.

Ayyub payg'ambar o'g'rining qiynalayotganini ko'rib, unga eshikni ochib beradi va shu eshikdan chiqishini aytadi.

Bu holatini ko'rgan o'g'ri o'zini tutolmay yig'lab yuboradi va Ayyubning oyog'iga bosh qo'yib kechirim so'raydi.

Navoiy Ayyubning uyini tillalar, javohirlar solinadigan sandiqqa o'xshatadi. Ayyubning o'zini esa toza durga o'xshatadi.



Yana bir ma'noda esa Allohning dargohi, uyi. U har doim toat-ibodat qilib kechalarni tongga ulaydi. Ayyubning ko'ngli shunchalik toza va pok bo'lgani uchun uning uyiga o'g'ri tushadi, bu holatni bilsa ham hech nima qilmasdan toat-ibodatini davom qiladi.

Na'ra chekib sel kabi to'kti yosh

Shayx oyog'iga qildi bosh

Bu misralarda mubolag'a, tashbeh she'riy san'atlaridan juda ham mahorat bilan foydalangan. O'g'riga Ayyub payg'ambar chiqish eshikini o'zi ochib berish holati va bu holatini ko'rib o'g'riining na'ra tortib yig'laganligi selga qiyoslanadi. Ayyub o'g'riga to'g'ri yo'l ko'rsatadi. U oldin faqat o'g'rilik qilib birovlarining tayyor ozuqasi evaziga kun kechirar edi. Lekin Ayyub payg'ambarning haqiqiy komil inson ekanligi sababli o'g'ri ham qilgan ishiga afsus qildi. Ayyub payg'ambar sababli o'g'ri tariqat, ma'rifat, haqiqat nimaligini tushunib yetadi. Qilgan ishlariga tavba qiladi.

Hikoyaning oxirida Alisher Navoiy talmeh san'atidan juda yaxshi foydalangan.

Boy bo'lu bir jom ila yetkur fitux

Sabr esa Ayyubcha yo'q umri Nux

"Qur'oni karim" da ham Ayyub payg'ambarni sabr-toqat ramzi deb qarashgan. "Hayrat ul-abror" "Xamsa" dagi boshqa dostonlardan farqi bu doston tasavvufiy, axloqiy, ta'limiy qarashlar bayon qilingan doston hisoblanadi. Dostonning badiiyatini tushinishda maqolat va hikoyalarining o'rni katta.

References:

1. "Xamsa" Toshkent 2016
2. "Xayrat ul abror" Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyot 1989-yil
3. Shavkat Mirziyoyev. Ozod va obod, demokratik O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston, 2016-yil
4. O'zbek tilining tarixiy leksikasi. Toshkent 1972-yil
5. N. Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: 1965-yil.
6. B. Bavoev. Navoiy asarlari leksikasi. Toshkent: 1983-yil
7. Ahmedov. Amaliy va ijodiy darslar. Ijobiy niyat va ijobiy obraz. 1-kitob 1981 yil
8. E. Begmatov. Ismlar va odamlar. T: Fan, 1987 yil.